

Od qavmining kufr keltirishi



15:30 / 12.12.2020 2801

Lekin Od qavmi bunday ko'plab ne'matlar uchun Allohga shukr qilmadilar, otalaridan eshitgan va yer yuzida izi qolgan to'fon qissasini unutdilar. Alloh Nuh qavmiga nima uchun to'fon balosini yuborganini unutdilar. Nuh ummati butlarga ibodat qilganidek ular ham butlarga ibodat qiladigan bo'ldilar. Ular o'z qo'llari bilan toshlardan butlarni yasab, keyin ularga sajda qilar va ibodat qilar edilar. Ulardan o'z hojatlarni so'rardilar, ularga duo qilardilar, ular uchun qurbonlik qilardilar va ular Nuh ummatining izidan borardilar. Ularning aqllari butlarga ibodat qilishdan man qilmas edi. Ularning aqllari o'zlarini hidoyat ya'ni to'g'ri yo'lga boshlamas edi. Ular dunyoda aqlli, dinda beaql va nodon edilar.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad